

## O‘ZBEK MATBUOTI VA JURNALISTIKASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

*Turayeva Feruza Tuxtamuradovna*  
*O‘zDJTU xalqaro jurnalistika*  
*fakulteti katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada mustaqillik yillarida o‘zbek matbuoti va milliy jurnalistikasini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan islohotlar mazmun-mohiyati, islohot jarayonlarining yutuqlari va muvaffaqiyatida ommaviy axborot vositalarining o‘rni va roli, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirishga qaratilgan huquqiy mexanizmning ishlab chiqilganligi va uning ahamiyati ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** mamlakat, o‘zbek matbuoti, milliy jurnalistika, islohot, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati, institut, erkinlashtirish, huquqiy mexanizm.

**Аннотация:** В статье представлен научный анализ содержания и сути реформ, проведенных за годы независимости в области развития узбекской прессы и национальной журналистики, роли средств массовой информации в достижениях и успехе реформаторских процессов, разработке правового механизма, направленного на освобождение СМИ от один из важных институтов гражданского общества.

**Ключевые слова:** страна, узбекская пресса, национальная журналистика, реформа, СМИ, гражданское общество, институт, либерализация, правовой механизм.

**Annotation:** The article provides a scientific analysis of the content and essence of the reforms carried out during the years of independence in the development of the Uzbek press and national journalism, the role and role of the media in the achievements and success of reform processes, the development of a legal mechanism aimed at freeing the media from one of the important institutions of civil society.

**Key words:** country, Uzbek Press, national journalism, reform, media, civil society, institute, liberalization, legal mechanism.

Mustaqillik davri o‘zbek matbuoti va jurnalistikasi sohasida kuzatilayotgan islohotlar jarayoniga nazar tashlansa, milliy jurnalistika yakka mafkuraga tobeligidagi tizimdan chinakam ma’nodagi mustaqil matbuot sari bo‘lgan yo‘lni dadil odimlar bilan bosib o‘tayotganligini ko‘rish mumkin. Jamiyat o‘zgardi va odamlarning dunyoqarashlari ham o‘zgardi. Tafakkurlar o‘zgarayotgani mezonlar o‘zgarayotganida, mezonlarning o‘zgarishi tafakkurlarga yangidan-yangi qiyofalar baxsh etayotganida o‘z ifodasini topayotgani ijobiy voqelik sifatida e’tirof etilmoqda. Eng muhimi, mazkur jarayon davom etmoqda, ma’naviy-intellektual evolyusiya davomiyligi har sohada saqlanib turibdi. Hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, shular singari barcha islohot jarayonlarining yutuqlari va muvaffaqiyatida ommaviy axborot vositalarining xizmati beqiyos. Tan olish kerakki, jamiyatda ko‘zga tashlanayotgan u yoki bu nuqsonlarda ham ommaviy axborot vositalarining ta’siri kuzatiladi.

Ma'lumki, bozor munosabatlariga o'tish davri shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarida o'zgarishlarga olib keldi. Keng omma orasida tevarak-atrofdagi yuz berayotgan voqelikni to'g'ri anglash, voqea-hodisalarni to'g'ri va xolis baholash, shaxsiy va milliy manfaatlar muvozanatini to'g'ri talqin etish osonlik bilan kechadigan jarayon emasligini hayotning o'zi ko'rsatdi.

Ikkinchi tomondan, respublika mustaqilligi jahon miqyosida axborot globallashuvi ayni avj olgan paytlariga to'g'ri keldi. YA'ni, ichki va tashqi omil tushunchasi o'zgardi, axborot oqimlari uchun an'anaviy chegaralar to'siq bo'lolmay qoldi, odamlarning axborotga bo'lgan iste'molchilik siyosati mutlaqo o'zgardi. Bunday paytda fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'llarini tezlashtirish, shu orqali axborotlashgan jamiyat poydevorini mustahkamlash yagona oqilona chora ekanligi ham hayot haqiqatiga aylandi.

Jamiyat demokratiyasi bilan matbuot demokratiyasi yaxlit bir butun jarayondir, zero uning birortasida demokratik tamoyillar o'rnatilmasdan turib ikkinchisida erkinlashgan tizimni qaror toptirish mumkin emas. Gap shundaki, misol tariqasida aytilsa, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqaroning jamiyatda kechayotgan jarayonlardagi ongli ishtirokini ta'minlashning o'zi boshqa qator ma'naviy-siyosiy yuksalishlarni taqozo etadi. Xususan, birinchi navbatda, aholining xabardorlik darajasi yuqori bo'lishi, ikkinchidan, hokimiyat tuzilmalarining quyidan yuqoriga qadar barcha bo'g'inlarida oshkoralikning o'rnatilishi, uchinchidan, manfaatparastlikning turli ko'rinishlarini o'zida mujassam etgan boshqa illatlardan tezroq qutulish uchun keng jamoat nazorati o'rnatilishi hamisha muhim va dolzarb muammo bo'lib qolaveradi.

Mustaqillik erkin fikrlashga, har kimning o'z fikrini oshkora bayon qilishiga keng imkoniyat yaratdi, erkin fikrlilikning barqarorligini ta'minlashda yangidan yangi imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Bu esa, bugungi kunda vaqtli matbuot turlari va sonlarining ko'payib borayotganida o'z ifodasini topmoqda.

O'tgan yillar davomida O'zbekistonda bosma ommaviy axborot vositalari bozori jadal sur'atlar bilan rivojlandi, buning yorqin dalili sifatida quyidagi bir-biridan mutlaqo farqlanuvchi yo'nalishdagi davriy nashrlar paydo bo'ldi:

- ijtimoiy-siyosiy nashrlar;
- iqtisodiyot, moliya va tadbirkorlik yo'nalishidagi nashrlar;
- qishloq xo'jaligi va fermerlik yo'nalishidagi nashrlar;
- ta'lim va fan masalalariga bag'ishlangan nashrlar;
- tibbiyot va salomatlikka doir nashrlar;
- ko'ngilochar nashrlar va dayjestlar;
- xotin-qizlarga mo'ljallangan nashrlar;
- sport nashrlari;
- satira-yumor ruhidagi nashrlar;
- siyosiy partiyalar nashrlari;



– shuningdek, qator boshqa tillarda chop etiladigan gazeta va jurnallar (qoraqalpoq, qozoq, tojik, koreys va hokazo)<sup>1</sup>.

Albatta, sanab o‘tilgan yo‘nalishlar bosma nashrlarning umumiy oriyentatsiyasi – mo‘ljalini anglatadi, vaholanki, har bir yo‘nalish zamirida respublika xalqi hayotining turfa soha va jabhalari qamrab olinadi, har bir nashrda e‘lon etilayotgan har bir chiqishda u yoki bu muallif mutlaqo o‘z fikri, o‘z qarashlari va o‘z mulohazalarini jamoatchilik muhokamasiga havola etadi. Mamlakat va xalq taqdiriga daxldor har qanday katta-kichik masala-muammolar haqida shu tariqa jamoatchilik fikri tug‘iladi, shakllanadi, pirovardida ular amaliyotda o‘z ifodasini topadi.

Matbuot nazariyasida matbuot funksiyalari – u bajaradigan ijtimoiy vazifalar masalasi alohida o‘rin tutadi. Matbuot funksiyalari deganda, matbuot nashrlari va ommaviy axborot vositalarining doimiy va qonuniylik tusini olgan faoliyati, uning maqsad va yo‘nalishlari tushuniladi.

Matbuotning ijtimoiy vazifalari haqida turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, xususan, sovet tuzumi davrida matbuotning funksiyalari “kollektiv targ‘ibotchi, kollektiv tashviqotchi va kollektiv tashkilotchi”likdan iborat, deb ko‘rsatilar edi. Vaholanki, matbuotning vazifasi yuqorida ko‘rsatilganidek, faqat biror g‘oyani targ‘ib va tashviq qilishdan iborat bo‘lmasdan ommaga xolis, obyektiv ijtimoiy axborotlar yetkazib berishdir<sup>2</sup>.

Taniqli rus matbuotshunos olimi Y.P.Proxorov matbuotning asosiy vazifalarini ijtimoiy, mafkuraviy, madaniy-ma‘rifiy va bevosita tashkilotchilik xillariga bo‘ladi<sup>3</sup>. Yuqorida keltirilganidek, matbuot ijtimoiy hayotni aks ettirish shakllaridan biri, real voqelikni bilish, tadqiq etish va unga qaytadan ta‘sir ko‘rsatishning muhim vositasidir. YA’ni, matbuotning bosh vazifasi – ijtimoiy hayotni aks ettirish, ijtimoiy axborotlar yig‘ish va ommaga yetkazib berishdan iborat. Matbuot nashrlari va ommaviy axborotning barcha turdagi vositalari doimiy ravishda jamiyat hayotini yoritish, uni tadqiq qilish va unga qaytadan ta‘sir ko‘rsatish vazifasini bajarib keladilar. Bundan shu narsa ko‘rinib turibdiki, matbuotning ijtimoiy vazifalari uch tarkibiy qismga, qirralarga bo‘linadi. Biz bu qismlarni shartli ravishda tasvir, tahlil va ta‘sir deb olamiz.<sup>4</sup> Har qanday jamiyatda erkinlik muhitini yaratish, ayniqsa ommaviy axborot vositalari sohasida demokratik prinsiplarni qaror toptirish maqsadi, vazifasi va o‘ziga xos muammolari hamisha insoniyatni, xususan, mutaxassislarni o‘ylantirib kelgan. Biroq, sovet mafkurasi hukmron bo‘lgan hudud jurnalistikasida yagona firqa aqidalarining yakkahokimligi sababli bunday muammo kun tartibiga qo‘yilmagan, binobarin, milliy matbuotshunoslik fanida u na ilmiy, na amaliy masala sifatida tadqiq etilmagan. Sotsialistik boshqaruvning barham topishi bilan barcha mustaqil davlatlarda nodavlat OAV tizimi vujudga keldi. Matbuotda erkinlik va mas‘uliyat uyg‘unligi mavzusi muammo sifatida shundan keyin paydo bo‘lib,

<sup>1</sup>Основы ведения медиа-бизнеса в печатных средствах массовой. 2012. С 55. информации. [https://buxgalter.uz/doc?id=161784\\_osnovy\\_vedeniya\\_mediabiznesa\\_v\\_pечатnyh\\_sredstvah\\_massovoy\\_informacii&rodid=1\\_zakonodatelstvo\\_ruz](https://buxgalter.uz/doc?id=161784_osnovy_vedeniya_mediabiznesa_v_pечатnyh_sredstvah_massovoy_informacii&rodid=1_zakonodatelstvo_ruz).

<sup>2</sup> Гусев, П. Опасно быть человеком, который свободно говорит то, что думает // П. Гусев // Журналист. - 2012. - № 1.

<sup>3</sup> Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. — Т.: Тафаккур, 2011. – Б. 30.

<sup>4</sup> Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. — Т.: Тафаккур, 2011. – Б. 31.





ko‘pchilik mutaxassislar e‘tiborini tortdi.

Vaqt o‘tishi bilan gazeta-jurnallar ma‘lum bir sohaga ixtisoslashib bordi. Ixtisoslashgan gazetalar jamiyat hayotining katta bir sohasini kengroq yoritish uchun maxsus chiqariladi hamda ana shu sohada ishlovchi, shu sohaga aloqador omma uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.

Xorijiy dunyo matbuotida ham ixtisoslashgan gazetalar mavjud. Bunga misol qilib, Angliyada chiqadigan “Finansial TIMES” («Moliya vaqti») deb ataluvchi moliya-iqtisod masalalariga bag‘ishlangan gazeta, Fransiyada nashr etiladigan “Letter French” («Fransiya adabiyoti»), Yaponiyada chiqadigan “San-key simbun” («Sanoat va iqtisod gazetasi»), Rossiyadagi “Literaturnaya gazeta”, “Ekonomicheskaya gazeta” va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Respublikada chiqariladigan va qishloq xo‘jaligi sohasida xizmat qiluvchi va qishloqda yashovchi kishilar hayotini yorituvchi “Qishloq hayoti”, sportning barcha sohalarini yorituvchi “Sport”, ta‘lim-tarbiya, oliy o‘quv yurtlari sohasini yoritishga mo‘ljallangan chiqarilayotgan “Ma‘rifat” kabi gazetalar ixtisoslashgan gazetalar hisoblanadi. Bu holatni nodavlat matbuot nashrlaridan ayollarimiz uchun maxsus nashr etilayotgan gazetalardan munis ayollar gazetasi – “Sug‘diyona”ni keltirishimiz mumkin. Bu xil gazetalar umumsiyosiy gazetalardan farqli ravishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy va boshqa sohalarini umuman yoritgani holda o‘zi mo‘ljallangan sohani keng va batafsil aks ettiradi. Ixtisoslashgan gazetalar jamiyat hayotining ayrim tomonlarini kengroq yoritib, umumsiyosiy gazetalarni to‘ldirib keladilar. Ixtisoslashgan gazetalar odatda markaziy gazetalar hisoblanadi, faqat, ayrim viloyatlardagina bunday maxsus gazetalar chiqarilishi mumkin.

Tarmoq gazetolari esa jamiyat hayoti, mamlakat iqtisodiyoti yoki tashkiliy tuzilmalarining ayrim tarmog‘ini kengroq yoritish uchun nashr etiladi. Bunday gazetalar, odatda biror-bir soha bo‘yicha vazirlik yoki shu maqomdagi tashkilot tomonidan chiqariladi. Bunga misol qilib respublika Aloqa vazirligi tomonidan chiqarilayotgan “Xabar”, Ichki ishlar vazirligining “Postda” gazetalarini ko‘rsatish mumkin. Bunday gazetalar asosan shu soha egalari uchun, ayrimlari esa keng o‘quvchilar ommasi uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Ayrim tuman va korxonalarda chiqariladigan umumsiyosiy gazetalar (masalan, asosan chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi biror tuman gazetasi, oliy o‘quv yurtlari yoki yirik sanoat korxonalarida chiqadigan ko‘p tirajli gazetalar) ma‘lum ma‘noda tarmoq gazetalariga yaqin turadilar. Tarmoq gazetolari ham jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotini umumlashtirgan holda o‘z tarmog‘i hayotini keng va chuqur yoritib, gazetaning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi<sup>5</sup>.

Hozirgi kunda o‘zbek matbuotidagi kunlik gazetalar o‘z mavqeiga ega bo‘lib, ushbu nashrlarning sahifalarida tahliliy va tanqidiy ruhdagi materiallar ham o‘rin egallamoqda. Xususan, “Xalq so‘zi”, “Yangi O‘zbekiston”, “Ishonch”, “Jadid” gazetolari shular jumlasidandir. Ijtimoiy-siyosiy nashrlar orasida eng yuqori tirajni tashkil etayotgan va haftada 5 marotaba (yakshanba va dushanbadan tashqari) chop etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” (42368)<sup>6</sup>, “Xalq so‘zi” (116165 nusxa)<sup>7</sup>, “Pravda

<sup>5</sup> Худойқулов М. Журналистика ва публицистика. — Т.: Тафаккур, 2011. — Б. 85-86.

<sup>6</sup> «Yangi O‘zbekiston» gazetasining 2024-yil 25-iyul kungi 148 (1209)-soni.

vostoka” (24825)<sup>8</sup>, “Toshkent oqshomi” hamda haftada 3 marotaba nashr etiladigan “O‘zbekiston ovozi” (14582)<sup>9</sup> kabi gazetalar 2024 yilga kelib 4 barobardan ortiq ushbu soha doirasida axborot berib kelmoqda. Shuningdek, mustaqillik davridan keyin nodavlat matbuoti nashrlari ham ko‘paydi. Bunga “Darakchi”, “Sug‘diyona”, “Hordiq”, “Bekajon” gazetalarini misol keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan bo‘lmish ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirishga qaratilgan huquqiy mexanizm ishlab chiqildi;

— sohada olib borilgan islohotlar natijasida ommaviy axborot vositalari tizimida mulkiy munosabatlar erkinlashtirildi;

— respublikada tipologik jihatdan rang-barang ommaviy axborot vositalari vujudga keldi, ayniqsa nodavlat bosma nashlar ta‘sis etish yo‘lga qo‘yildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Основы ведения медиа-бизнеса в печатных средствах массовой. 2012. С 55. информации.

[https://buxgalter.uz/doc?id=161784\\_osnovy\\_vedeniya\\_mediabiznesa\\_v\\_pечатnyh\\_s\\_redstvah\\_massovoy\\_informacii&prodid=1\\_zakonodatelstvo\\_ruz](https://buxgalter.uz/doc?id=161784_osnovy_vedeniya_mediabiznesa_v_pечатnyh_s_redstvah_massovoy_informacii&prodid=1_zakonodatelstvo_ruz).

2. Гусев, П. Опасно быть человеком, который свободно говорит то, что думает // П. Гусев // Журналист. - 2012. - № 1.

3. Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. — Т.: Тафаккур, 2011. — Б. 30.

4. Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. — Т.: Тафаккур, 2011. — Б. 31.

5. Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. — Т.: Тафаккур, 2011. — Б. 85-86.

6. «Yangi O‘zbekiston» gazetasining 2024-yil 25-iyul kungi 148 (1209)-soni.

<sup>7</sup> Халқ сўзи, 2017 йил 24 май №102 (6796).

<sup>8</sup> Правда востока, 2017 йил 24 май №100 (28588).

<sup>9</sup> Ўзбекистон ovozi, 2017 йил 23 май №62 (32277.)